

USMON AZIM SHE'RIYATIDA KUZ OBRAZINING BADIY-FALSAFIY TALQINI

Hakimova Muxlisaxon Shuhratjon qizi

FarDU 4-kurs talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatining muhim namoyandalaridan biri Usmon Azim ijodida kuz obrazining badiiy va falsafiy talqini tahlil qilinadi. Tabiat unsurlarining lirik qahramon ruhiyati bilan o'zaro aloqasi, peyzaj lirikasining nazariy asoslari hamda kuz faslining ramziy-majoziy mazmuni yoritiladi. Shoir she'rlari asosida kuzning iztirob, xotira, ruhiy poklanish va hayot falsafasini ifodalovchi poetik vosita sifatidagi funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: peyzaj lirika, kuz timsoli, ramziylik, lirik subyekt, poetik tafakkur.

Abstract

This article examines the artistic and philosophical interpretation of the image of autumn in the poetry of one of the prominent representatives of modern Uzbek literature, Usmon Azim. It explores the interrelation between natural elements and the inner world of the lyrical subject, as well as the theoretical foundations of landscape lyrics. The symbolic and metaphorical meanings of autumn are analyzed based on the poet's works. The study reveals that autumn functions as a poetic symbol expressing emotional tension, memory, spiritual purification, and reflections on the transience of life.

Keywords: landscape lyrics, image of autumn, symbolism, lyrical subject, poetic thinking.

Kirish

Badiiy adabiyotda tabiat tasviri inson va borliq o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalashning muhim estetik vositasi hisoblanadi. Ayniqsa, lirika janrida tabiat obrazlari orqali insonning ichki kechinmalari, ruhiy holati va subyektiv qarashlari ifodalanadi. Tabiatga oid obrazlar o'quvchi uchun tanish va sezilarli bo'lgani sababli ular orqali berilgan badiiy fikr yanada aniqroq qabul qilinadi. Shu bois lirik qahramonning

mavhum kechinmalari tabiat manzaralari bilan uyg'unlashtirilganda, she'ning obrazlilik darajasi ortadi.

Usmon Azim she'riyatida aynan shu jihat yetakchi o'rin egallaydi. Shoir tabiat tasvirlari orqali inson ruhiyati bilan bog'liq murakkab holatlarni chuqur poetik talqin qiladi.

Peyzaj lirikasining poetik xususiyatlari

Peyzaj lirika adabiyotshunoslikda tabiat tasviri orqali inson ruhiyati ifodalangan lirik shakl sifatida qaraladi. Bu turdagi she'rlarda tabiat mustaqil tasvir obyektini emas, balki ma'lum ruhiy holatni ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Peyzaj lirikasining muhim belgilaridan biri — subyektivlikdir. Tabiat manzarasi lirik qahramonning ichki kechinmalari orqali idrok etiladi. Shu bilan birga, psixologik parallelizm ham muhim rol o'ynaydi, ya'ni tabiatdagi o'zgarishlar inson ruhiyati bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, peyzaj lirikasida ramziylik kuchli bo'ladi. Tabiat unsurlari ko'pincha bevosita ma'nodan tashqari chuqur semantik yukni ham o'zida mujassam etadi.

Usmon Azim ijodida fasllar badiiy tafakkurning muhim komponenti sifatida namoyon bo'ladi. Har bir fasl muayyan ruhiy holatni ifodalovchi poetik ramzga aylanadi. Shoir ijodida kuz obrazi markaziy o'rin egallaydi. Kuz fasli orqali inson hayotining murakkab bosqichlari, iztirob va xotira motivlari ifodalanadi.

Masalan:

“Tong titraydi kech kuzakning quchog'ida,
Yulduzlarni o'chirmoqda gulgun shafaq...”

Ushbu satrlarda kuz peyzaji orqali ruhiy beqarorlik va ichki keskinlik ifodalangan. Tabiat unsurlari lirik qahramon kechinmalari bilan uyg'unlashib, kuchli poetik ta'sir hosil qiladi.

Usmon Azim kuz obrazini yaratishda metafora, ramz, personifikatsiya kabi badiiy vositalardan keng foydalanadi.

Masalan:

“Kuz — mening sen tomon uzatgan qo'lim...”

Bu satrda kuz yarashuv va ruhiy yaqinlik ramzi sifatida talqin qilinadi.

Shuningdek, kuz peyzaji turli makonlarda tasvirlanadi: Turkiston, Boysun, Do‘rmon. Bu esa peyzajning milliy va individual xususiyatlarini kuchaytiradi.

Mumtoz adabiyotda inson umrini fasllarga qiyoslash an‘anasi mavjud bo‘lsa, shoir bu an‘anani o‘ziga xos tarzda davom ettiradi. U fasllarni yangi badiiy talqin bilan boyitadi va ularga individual mazmun yuklaydi. Ayniqsa, kuz obrazi shoir ijodida yetakchi o‘rinni egallaydi. Kuz orqali inson hayotining murakkab bosqichlari, o‘tkinchilik, yo‘qotish va ruhiy iztiroblar ifodalanadi.

Usmon Azim she‘riyatida kuz tasviri inson ruhiyati bilan bevosita bog‘langan holda beriladi. Tabiatdagi o‘zgarishlar lirik qahramon kechinmalarining poetik ifodasiga aylanadi. Masalan, kuz manzaralari orqali ichki iztirob, beqarorlik va hayotiy mulohazalar ifodalanadi. Tabiatdagi so‘lish, xazonrezgi, sokinlik kabi holatlar inson ruhiyati bilan parallel tarzda talqin qilinadi. Bu esa she‘rda kuchli emotsional ta‘sir hosil qiladi hamda o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi.

Shoir kuz obrazini yaratishda turli badiiy vositalardan keng foydalanadi. Xususan, metafora, personifikatsiya va ramzlar muhim o‘rin tutadi. Kuz ba‘zan ayriliq, ba‘zan xotira, ba‘zan esa poklanish timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa obrazning ko‘p qatlamli semantik tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, kuz peyzaji turli makonlarda tasvirlanib, uning milliy va individual xususiyatlari ochib beriladi. Bu jihat shoir ijodining o‘ziga xosligini belgilaydi.

Usmon Azim she‘riyatida milliy makon muhim badiiy funksiyani bajaradi. Bu peyzaj unsurlari orqali shoir o‘zining ichki kechinmalarini, hayot haqidagi qarashlarini va estetik idealini ifodalaydi. Natijada milliy peyzaj umumiy poetik tizimning muhim tarkibiy qismiga aylanadi. Shoir ijodida Boysun, tog‘lar, bog‘lar kabi milliy peyzaj unsurlari muhim o‘rin tutadi. Ular shoir ruhiyati va dunyoqarashi bilan uzviy bog‘liq.

Masalan:

“Boysunga ham kuzak kelgandir...”

Xulosa

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Usmon Azim she‘riyatida kuz obrazi chuqur badiiy va falsafiy mazmun kasb etadi. Kuz fasli orqali inson ruhiyatining murakkab holatlari, hayotning o‘tkinchiligi va ma‘naviy poklanish jarayonlari ifodalanadi.

Shoir ijodida peyzaj lirikasining asosiy xususiyatlari o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘lib, kuz obrazi ushbu tizimning markaziy unsurlaridan biri sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 1995.
2. Davronova M. O‘zbek she‘riyatida individual uslub poetikasi. – Samarqand, 2021.
3. Yo‘ldoshev N. Cho‘lpon she‘riyatida peyzaj. – Toshkent, 1994.
4. Suvonova J. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida badiiy izlanishlar. – Samarqand, 2000.
5. Umirova S. O‘zbek she‘riyatida poetik individuallik. – Samarqand, 2019.